

## INGLIZ VA ITALYAN TILLARIDAGI PREDLOGLI IBORALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Xudoyqulov Behzod*

*DTPI o'qituvchisi,*

[behzod\\_xudoyqulov@dtpi.uz](mailto:behzod_xudoyqulov@dtpi.uz)

*Ruziboyeva Dildora*

*DTPI magistranti.*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda, frazeologik iboralar va idiomalar ustida qizg'in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, frazeologik iboralarning har taraflama jihatlarini o'rganish frazeologiya sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Frazeologik iboralarni qiyosiy jihatlarini o'rganish asosida ularning semantik jihatlariga ham to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqolada ingliz va italyan tillaridagi predlogli frazeologik iboralar tahlil qilingan bo'lib ularning semantik xususiyatlari ham tegishli misollar orqali tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Frazeologik birlik, frazeologik ibora, tarjima, shakl va ma'no, ko'chma ma'no.

## SEMANTIC FEATURES OF PREPOSITIONAL IDIOMS IN THE ENGLISH AND ITALIAN LANGUAGES

*Khudaykulov Bekhzod*

*Teacher, Denau institute of entrepreneurship and pedagogy.*

[behzod\\_xudoyqulov@dtpi.uz](mailto:behzod_xudoyqulov@dtpi.uz)

*Ruziboeva Dildora*

*Master's student*

*Denau institute of entrepreneurship and pedagogy.*

**Annotation:** Phraseological units are considered one of the essential and most interesting parts of the English vocabulary. And translating phraseological units is one of the main issues of translation theory. The most significant feature of phraseological units in each language is to find its equivalent into other language. This article aimed at investigating the translation and semantic features of prepositional idioms in the English and Italian languages.

**Key words:** Phraseology, idioms, phraseological unit, translation, meaning, figurative meaning.

Har bir milliy tilda badiiy nutqning hissiy ta'sirchanligi va obrazlilikini yuzaga keltiruvchi shunday barqaror so'z birikmalari tez-tez uchrab turadiki, ularning paydo bo'lishi xalqlarning tabiat va jamiyatdagi narsa va voqea-hodisalarga nisbatan qarashlari, munosabatlari bilan bog'liqdir: odamlar narsa va hodisalar dunyosiga nisbatan o'z munosabatlarni obrazli, hissiy-ta'sirchan hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida turli-tuman muqoyasaga asoslangan lisoniy vositalardan foydalanadilar. Tasvirlanayotgan shaxs, narsa, xislat-xususiyat, voqea-hodisa va tabiat manzaralari ko'pincha mubolag'ali tarzda kitobxonga yaxshi tanish obrazlar bilan muqoyasa qilinadi. Natijada tasvir yanada oydinlashadi, ifodaning obrazliyligi oshadi, yuqori ta'sirchanlik va hissiy tuyg'u yuzaga keladi.

Ilmiy adabiyotlarda frazeologik birliklarning turg'un so'z birikmalar ekanligi, ularning nutq jarayonida yangidan yaratilmasdan balki, doimo tayyor holda bir xil sostavda qo'llanilishi olimlar tomonidan bir emas, bir necha martalab ta'kidlangan<sup>1</sup>.

Frazeologizmlar ma'lum ma'no va stilistik funksiyalarning ifoda etish uchun o'zlari taalluqli bo'lgan xalq vakillari tomonidan mustaqil ravishda yaratilganliklari ham shu ma'no va stilistik funktsiyalarning ifodasi uchun boshqa xalq vakillari tomonidan yaratilgan frazeologizmlarning ko'p hollarda leksik sostavlari farq qiladi.

Frazeologizmlar barcha tillarda ham qiziqarli mavzulardan bo'lib, ularni so'zma-so'z tarjima qilish imkonsiz. Frazeologik iboralar tilni jonlantiradi, ular jilolangan va tilda alohida o'rin egallaydi. Ko'pincha ular tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va tarixi bilan bog'liq. Xuddi shu kabi xususiyatlarga ega quyidagi, ingliz tilidagi – predlogli iboralarni o'zbek tilidagi tarjimasi orqali ko'rib chiqamiz:

- **at any rate** – har qanday holatda /nima sodir bo'lishidan yoki sodir bo'lishidan qat'i nazar.
- **at one's disposal** – bironing ixtiyorida .
- **at fault** – aybdor /muammo yoki baxtsiz hodisaga sabab bo'lgan.
- **at first** –boshida.
- **at last** – nihoyat, biroz kechikishdan keyin (uzoq kutishdan keyin charchoq hissini bildiradi).
- **at a loss** – nima qilish yoki aytishni bilmay; so'zsiz qolish.
- **behind the scenes** - sahna ortida/voqealarga yashirincha ta'sir o'tkazish; ko'rinmasdan.
- **beside the point** –ahamiyatsiz.
- **by accident** – tasodifan/ataylab emas.
- **by all means** – har qanday usul bilan/har qanday mumkin bo'lgan usul bilan.
- **by hand** – qo'lda/texnikadan foydalanmasdan.
- **by heart** – yoddan/xotiradan.

<sup>1</sup> Логан.П. Смит Фразеология английского языка. Москва 1959 стр 172

- **by mistake** – xato bilan/tasodifan.
- **by oneself** – o‘zi/yolg‘iz.
- **by the seat of my pants** – rejalashtirilmagan instinkt bilan harakat qilish.
- **by the way** – aytgancha/tasodifan (yangi, bog‘liq bo‘lmagan mavzuni kiritish uchun foydalaniladi).
- **for good** – yaxshilik uchun.
- **for a living** – yashash uchun.
- **for one thing** – bitta sababga ko‘ra (bir nechta sababdan).
- **for sale** – sotish uchun/sotish uchun mo‘ljallangan.
- **for now or for the time being** – hozir yoki hozircha/boshqa kelishuv/qaror qabul qilinmaguncha.
  - **for a while** – ma‘lum muddatga/ma‘lum muddatga.
  - **for sure** – aniq/albatta.

Italyan tilida ham xuddi ingliz tilidagi kabi predlogli iboralar mavjud bo‘lib ularning ma‘nolarini quyidagi misollar orqali ko‘rib chiqamiz:

- **A caro prezzo** - Qimmat narxda<sup>2</sup>
- **A dire il vero** - Rostini gapirganda
- **A dirla schietta** - Ochiq,oydin gapirganda
- **A due mani** - Sahiy
- **A mano a mano** - Sekin-sekin, bosqichma-bosqich.
- **A nessuno e nascosto** - Hech kimga sir emas (hammaga ma‘lum...)
- **A noi!** - Boshladik! (Bizning navbat!)
- **A norma di legge** - Qonunga muvofiq
- **A notte alta (tarda)** - Kech tunda
- **A occhiate** - Tashqi ko‘rinishidan, tashqaridan qaraganda
- **A parole** - So‘zda, tilda aytilganda (o‘g‘zaki)
- **A passi di formica** - Kichik qadamlarda (juda sekin)
- **A passo saldo** - Dadil qadam bilan
- **A passo svelto** - Sergak, dadil qadam bilan<sup>3</sup>
- **A bruciapelo** - Juda yaqindan; 2. To‘satdan, tasodifan.
- **A malapena** - Qiyinchilik bilan.
- **Alla buona** - 1.Oddiy, 2. Shikoyatsiz
- **Di buon passo** - Tez qadamlar bilan
- **Di buona lega** - Yaxshi sifatda (sifatli).
- **Di fatto** - Aslida
- **Di sotto il naso** - Burinning ostida

<sup>2</sup> Oltiev T., Xudoyqulov B. Italyan tilidagi iboralarning tarjimasini lug‘ati. – 2021.

<sup>3</sup> B.Xudoyqulov. - Italyan tilidagi ayrim iboralarning tajimasi xususida “Сўз санъати халқаро журнали”. – 4 jild, 6 son. 2021. 175 b.

- **Di sua resta** - O'z aqli bilan, mustaqil ravishda
- **Di tutto il cuore** - Butun yuragi bilan
- **Di tutto l'anima** - Bor qalbi bilan
- **Di buon'ora** - Barvaqt<sup>4</sup>;
- **Di gran lunga** - Juda, juda ko'p;
- **Di punto in bianco** - To'satdan, tasodifan
- **Rimanere di sasso o di stucco** - Hayratlangan, hayratlanib
- **Essere, trovarsi, navigare in cattive acque** - Qiyin davrni/vaqtini boshidan o'tkazmoq.
- **In gamba** - Oyoqqa turgan, o'zini eplagan.
- **In stato interessante = incinta** - Homilador
- **Per filo e per segno** - Batafsil
- **Andare, procedere con i piedi di piombo = con molta prudenza** - Juda ehtiyotkorlik bilan
- **Stare con le mani in mano** - Qo'l qovushtirmoq
- **Su due piedi** - Darhol
- **Su per giù** - Taxminan, chamasi
- **Stare sulle spine** - Xavotirda
- **Essere, stare tra due fuochi** - Ikki o't orasida bo'lmoq

Ushbu ikki tildagi frazeologik iboralar orasida bir – biriga o'xshash yoki qisman ekvivalent iboralarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan

- Ingliz tilida: **by accident** – tasodifan/ataylab emas; **by mistake** – xato bilan/tasodifan.
- Ushbu iboralarning italyan tilida quyidagi sinonimlari bor:  
**A bruciapelo** - To'satdan, tasodifan; yoki **Di punto in bianco** - To'satdan, tasodifan

Turli xalqlar frazeologik birliklarning har jihatdan o'xshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlari va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, boshqa til vositalari singari frazeologizmlar ham turli-tuman umuminsoni fikr bayon qilish me'yorlari va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladi. Natijada turli tillar barqaror so'z birikmalari bir xil obrazli asosdan iborat bo'lib qoladilar. Ham moddiy, ham ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan o'zaro mos ayrim frazeologik ekvivalentlar tarkibidagi ba'zi predmetlar nomlari bir-birlaridan son shakllari jihatlaridan farq qiladiki, tarjima jarayonida ushbu tafovutli holatga ilmiy ijodiy yondoshish adekvat vositasi yaratishning bir-birining garovi sanaladi.

<sup>4</sup> Oltiev T., Xudoyqulov B. Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – 2021.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oltiev T., Xudoyqulov B. Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – 2021.
2. Behzod X. ITALYAN TILIDA PREDLOGLAR BILAN ISHLATILADIGAN AYRIM IBORALARNING TARJIMASI XUSUSIDA //Conferences. – 2021.
3. Логан.П. Смит Фразеология английского языка. Москва 1959. стр 172.
4. Худайкулов Б. ITALYAN TILIDAGI AYRIM IBORALARNING TAJIMASI XUSUSIDA (“Non” va “suv” konsepti bilan ifodalangan iboralar misolida) //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 6.